



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT



UNIVERSITETI
FILOLOGiya FAKULTETI

Ro'yxatga olindi:		"TASDIQLAYMAN"
№ <u>6023010</u>		SamDU rektori:
2024-yil <u>"10" 15</u>		<u>R.I.Xalmuradov</u>
		2024-yil " " "

TURKCHA MATN TARJIMASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish

Fan/modul kodi 5TF2606		O'quv yili 2026-2027	Semestr VI	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Turkcha matn tarjimasi		70	110	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	Fanni o'qitishdan maqsad – badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar tuzilishi va tarkibi; badiiy, ilmiy va publitsistik uslubning o'ziga xos jihatlari; matn ustida ishlashning nazariy va metodologik asoslari; matn tarjimasi va turlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; badiiy, ilmiy va publitsistik matnlarni tarjima qilish texnikasini; matnlarni janr turlariga ko'ra ajrata olish; tarjima matnlarini qiyoslash; turk tilidan ona tiliga, ona tilidan turk tiliga tarjima qilish; tarjima matnini tahrir qilish; tarjima matni leksikasi ustida ishlash; tarjima matnidagi sintaktik konstruksiyalari ustida ishlash; ma'nodagi xatolarni bartaraf etish haqidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning maqsadi-talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini, shuningdek, tarjima jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)	
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Tarjimashunoslikning paydo bo'lishi, fanning maqsad va vazifalari Tarjima asarlari milliy adabiyotimizning bebaho boyligiga aylangan bugungi kunda adabiyotni asrash, ma'naviy qadriyatlarini e'zozlab, kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyot orqali xalqaro aloqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor talab etilmoqda. Tarjima

	prinsiplarining qaror topishi va tarjima nazariyasining fan sifatida shakllanish jarayonini o'rganishda faqat muayyan bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish amaliyotinigina o'rganish metodologik tomondan yetarli emas. Tarjimachilik bir necha yuz yillik tarixga ega. Bu davr ichida ilm-fanning turli sohalariga oid yuzlab asarlar arab, fors, ingliz, rus va dunyoning boshqa tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan. O'zbek adiblarining bebaho badiiy asarlari, olimlarning behisob ilmiy tadqiqotlari ham dunyoning o'nlab tillariga tarjima o'girilgan.
M2	Ilmiy matnlar tuzilishi, tarkibi va tarjimasining o'ziga xosliklari Ilmiy tarjima – yozma tarjimaning muhim turi hisoblanadi. Maxsus ilmiy matnlarning tarjimasiga qo'l urgan tarjimon o'zi tarjima qilayotgan ilm sohasidan, tarjima predmetidan tegishli darajada xabardor bo'lishi zarur. Aytaylik, biron fizika darsligini o'zbek tiliga ag'darish uchun tarjimon, avvalo, fizikani bilishi kerak. Tarixiy kitobni o'girish uchun tarjimondan tilni chuqur bilishdan tashqari, tarixning o'zini yaxshi bilish talab etiladi.
M3	Publitsistik matnlar tuzilishi, tarkibi va tarjimasining o'ziga xosliklari Publitsistik tarjima deganda ushbu uslubda yozilgan asarlar, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, bunday mavzudagi notiq nutqi tarjimalari tushuniladi. Bu yerda, avvalo, publitsistik uslub o'zi nima degan savolga javob berish kerak bo'ladi. Publisistik uslub – targ'ibot-tashviqot va da'vat uslubi bo'lib, asosan matbuot materiallari ana shu uslubda yoziladi. Publisistikada jamiyatning yetilgan masalalarini muhokama qilinib, jamoatchilik fikriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazish maqsadida tilning ta'sir qudratidan foydalaniladi. Muammoli maqolalar, ocherk, pamflet, fel'eton va boshqalar publitsistik uslubda yaratiladi. Shuningdek, publitsistik uslub notiqlik san'ati va og'zaki nutq bilan ham chambarchas bog'liq. Publitsistik matnlarda logoepistema, so'z o'yini, stilistik tropalar va boshqa implitsit ifoda vositalarining o'rni beqiyos.
M4	Badiiy matnlar tuzilishi, tarkibi va tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari Dunyoni madaniy jihatdan o'zlashtirish va insoniyatning jamoaviy xotirasini kengaytirish vositasi, madaniyatning omili badiiy tarjimadir. Uning nazariy asosini adabiy tarjima nazariyasi tashkil

	etadi. Badiiy tarjimaning qoidasi – tarjima qilinayotgan asarning ruhini berish. Asar shunday tarjima qilinishi kerakki, o'quvchi uni asliyat muallifi qanday yozgan bo'lsa, tarjimasi ham xuddi shunday o'qilishi kerak. Har bir tarjima o'z o'quvchisiga asliyatni o'qigan kitobxonda qoldirganchalik taassurot qoldirishi kerak. Badiiy tarjimada hech qanday qo'shimcha qilish, qisqartirish, o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar asliyatda kamchiliklar bo'lsa, u ham tarjimada to'g'ri yetkazilishi kerak. Tarjimonning tajribasi, qobiliyatlari qanchalik kam bo'lsa, u o'ziga shunchalik ko'p erk beradi va muvaffaqiyatga da'vo qiladi. Tajribali tarjimon esa o'zining ijodiy fantaziyasini asliyatga sadoqatli bo'ysundiradi. Yomon tarjimon yaxshi narsani o'ziga qarab tortsa, yaxshi tarjimon muallifga qarab tortadi. Badiiy tarjimada asarning estetik idrok etilish xususiyati ham saqlanadi. Unda madaniyatlararo, madaniy-etnik muloqot hukmronlik qiladi.
M5	Turkchadan o'zbekchaga matn tarjimasida frazeologik birliklarning berilishi Turk va o'zbek tillarida iboralar asosan bir-biriga o'xshash, ko'pchiligi o'z ekvivalentiga ega. Ammo ayrim iboralarni tarjimada berishda tarjimonlar ibora obrazli asosini o'zgartirishni ma'qul ko'radilar. "...Tarjimon xalqining didi, saviyasi, xarakteri va talabini qat'iy suratda hisobga olgan holda tarjima qilishi lozim" – deb yozgan edi G'. Sa-lomov o'zining "Til va tarjima" nomli kitobida. Darhaqiqat, tarjimoni o'qiyotgan kitobxon asarning tarjima ekanligini xayoliga ham keltirmasligi kerak. Buning uchun tarjimon asl nusxa nafosatini ifodalovchi so'zlar, frazeologik birliklar zahirida yashiringan ma'no nozikliklarini mohirona ilg'ay olishi, ularni ilmiy asosda tahlil qilib, asarning butun murakkabligi bilan o'z tiliga o'girishi kerak. Shundagina tarjima milliy adabiyot mulkiga aylanadi.
M6	Turkchadan o'zbekchaga va o'zbekchadan turkchaga tarjimada "soxta ekvivalentlar"ning berilishi Badiiy tarjimada so'z tanlash masalasi tarjimashunoslikda ko'p tilga olinadigan "soxta ekvivalentlar" muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki har bir so'z tovush va ma'no nuqtai nazaridan o'z qimmatiga ega. Faqat bir xil so'z ikki tilda uchraganda, u ba'zan o'zgarishsiz qolish bilan bir paytda ma'no jihatdan ham farqlilik kasb etishi mumkin. Tillar o'zaro yaqin, qardosh yoki bir-biridan uzoq bo'lishidan qat'iy nazar, tarjima sirasida bir qator muammolarga duch kelinishi tabiiy. Ana shunday muammolar sirasiga "soxta ekvivalentlar" ham kiradi. Umumiy tilshunoslik va tarjimashunoslikda "soxta ekvivalentlar" turlicha nomlansa-da, ular deyarli bir xil yoki bir-biriga o'xshash hodisalarni atash uchun xizmat qiladi.

M7	Abdulla Qodiriy romanlarining turkcha tarjimalarida muallif uslubining qayta yaratilishi Ijod jarayonida tarjimon so'z ma'nosini anglashda faqat uning semantik tuzilishini bilishdan tashqari, asliyat tilida so'zlashuvchi kishilarning badiiy tafakkuri, fikrlash tarzi va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo'lishi lozim. Chunki mazkur vazifalarni so'zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu, til hodisasining tabiati, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun ongda "pishirib" o'z tilida o'quvchiga bekamu-ko'st uzatish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bundan tashqari, muallif asar yaratar ekan, yangi asarning kompozitsiyasi, syujet chizig'i, uslub xususiyatlari haqida bosh qotirmaydi. Muallifning maqsadi voqelikni badiiy aks ettirishdangina iborat bo'lib, u beixtiyor, o'z uslubini kashf etadi. Asar yaratar ekan, muallif har bir hodisa, vaziyat, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qarab, asar g'oyasidan kelib chiqib mos detallar tanlaydi va asar mazmuni doirasida o'z fikrni ifodalaydi. Tarjimonning vazifasi esa asar uslubi, yozuvchining iste'dodi qirralarini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat.
M8	Odil Yoqubov asarlarining turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi Iboralar nutq ta'sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o'zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so'zlar sifatida xalqning urf-odati, an'analari, madaniyati va tarixini o'zida yaqqol aks ettiradi. Adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi frazeologizmlar inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Ular inson va hayvonot dunyosi, ularning tana a'zolari, xatti-harakatlariga qiyosan yuzaga kelgan. Shuningdek, atrofni o'rab turgan tabiat va undagi turli hodisalar, o'simlik dunyosi ham o'zbekcha va turkcha iboralarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Ushbu ma'ruzada tahlilga tortilgan frazeologizmlar "Adolat manzili" romanidan olinib, Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" dagi shakli bilan solishtirildi va shundan keyin turkcha tarjimalari bilan qiyoslandi. Turkcha matndagi frazeologizmlar esa taniqli turk olimi, turkcha maqol va iboralar lug'ati muallifi O.Aksoy va H. Adigozalning maqol va iboralar to'plamlari, turkcha-ruscha va ruscha-turkcha lug'atlar bilan solishtirildi.
M9	R.N.Guntekin asarlari uslubini qayta yaratishda tarjimonning so'z tanlash mahorati Tarjimon ijod jarayonida so'z ustida ish olib boradi. Asliyatdagi so'zning tarjima tilidagi sinonimlari orasidan munosibini tanlash ustida bosh qotiradi. Sinonim so'zlar ichidan eng munosibini topib ishlata bi-

	lish iste'dod, tilning nozik tomonlarini chuqur his etishning nishonasi-dir. Bu badiiy tarjimada aniqlikka olib keladigan asosiy talablardan biri. So'z aniqligi, birinchi navbatda, uning ma'no va badiylik hosil qilish jihatidan asl nusxaga qanchalik aniq mos va monand bo'lishiga qarab belgilanadi. Chex tarjimashunosi Irji Levii tarjimon mahorati doimiy so'z tanlash, variantlar qidirishdan iboratligi haqida so'z yuritar ekan shuni nazarda tutgan.
M10	Yashar Kamolning "Ararat afsonasi" romanidagi milliylikka xos so'zlarning tarjimada berilishi Asarning milliy o'zgachaligini namoyon etuvchi xos so'z (reali-ya)lar va ularning badiiy tarjimada berilishi tarjimashunoslikning muhim masalalaridan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan liso-niy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xos so'z (realiya)lar tarjimondan alohida yondashuvni talab etadi. Ularni asardagi minglarcha so'z orasidan alohida ajratib olish va oddiy yo'l bilan boshqa tilga o'girish mumkin emas. S.Vlaxov va S.Florinlar ta'biri bilan aytganda, "...bunday so'zlarning ba'zilar tarjima matniga o'zgarmsdan o'tadi (transkripsiya), boshqalari esa tarjimada morfologik yoki fonetik shaklini qisman bo'lsa-da saqlab qoladi, hatto ba'zilarini umuman boshqa, tashqaridan qaraganda, ma'no jihatdan teng bo'lmagan, hatto "to'qilgan" leksik birliklar bilan almashtirishga to'g'ri keladi.
M11	Badiiy matn tarjimasi. Turkcha hikoyalar tarjimasi Badiiy tarjima xalqlar orasidagi madaniyat ko'prigi hisoblanadi. Xususan, bir til oilasiga mansub bo'lgan o'zbek va turk tillari orasida amalga oshirilgan badiiy tarjimalar, tarixi va madaniyati yaqin bo'lgan o'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi do'stlik ko'priklarining yanada mus-tahkam bo'lishiga qo'shiladigan salmoqli hissa hisoblanadi. Albatta bunda tarjimada asliyat badiiyatining berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimaning saviyasi, tarjimonning asl nusxani boshqa tilda qayta yaratishdagi mahorati tarjimaning badiiy saviyasi bilan o'lchanadi va bu masalaning o'rganilishi har doim tarjimashunoslikning dolzarb muam-malaridan biri bo'lib keladi. Tarjimon mahorati qirralarining tadqiq eti-lishi asar tarjimasining badiiy saviyasi, sifatini baholashga imkon be-radi.
M12	Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasi, tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari

	Rasmiy uslubdagi matnlar qoliplashgan so'zlardan iboratligi, bir ma'noliligi jihatdan boshqa uslubglarga xos matnlardan farqlanadi. Rasmiy uslubga xos matnlarda fikrlar aniqligi, dalillanganligi, turli lavozim va tashkilotlar nomlarining berilishi bilan ham farqlanadi. Rasmiy uslubga xos matnlar tarjimasida tashkilot hamda lavozimlar nomini, atoqli ismlarni tajima qilishda duch kelinadigan bir qator murakkabliklar mavjud.
M13	Tarjimada ekvivalentlik masalasi Lisoniy tarjimaning muhim vazifalaridan biri "tarjimada ekvivalentlik" tushunchasidir. Asliyat va tarjimaning mazmunan mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko'pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Ekvivalentlik tarjimaga berilgan "bir tildagi matnni o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish" kabi ta'rifga mos keladi. Ekvivalent tarjima asliyat mazmunini o'zga tilda vazifaviy-uslubiy jihatdan to'la talqin etishdan iborat jarayondir. Til belgilari yig'indisidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi.
M14	Leksik birliklar va tarjima Muayyan til vositalari ma'nolarini ona tili birliklari yordamida tushuntiradigan mavjud ikki tilli lug'atlar, qanchalik keng va atroflicha tuzilsa-da, nutq jarayonida namoyon bo'ladigan ikki til muvofiqlarining barchasini ifodalay olmaydi. So'z birikmasi, sintagma, jumla, abzas, bob va butun boshli asar qatori alohida lisoniy vosita, goh yordamchi so'z ham tarjimaning asosiy birligi hisoblanadi. Tarjimoni to'la aks ettirishda leksik birliklar bilan birga, predloglar, bog'lovchilar, artikllar kabi yordamchi vositalar ham to'g'ri idrok etilishi va ijodiy o'girilishi muhim ahamiyat kasb etadi.
M15	Tarjimada vorisiylik, uzviylik, davomiylik masalalari Bir avlod tarjimonlarining ijodi keying avlod uchun, o'rta avlod tajribasi undan keyingi va hozirgi yosh tarjimonlar uchun vorisiy xazinadir. Ustoz-shogirdchilik, maktabdoshlik an'analari, ta'sir va aks ta'sir badiiy tarjimada o'ziga xos tarzda kechadi. Ustoz shogirdning tarjima qilish texnikasi, usul va uslubi, o'z tarjimasini qiyomiga

	yetkazish ustida ishlashini o'rganishi muhim hisoblanadi.
M16	Tarjimada nutqiy xususiyat Tilning lug'at tarkibi, grammatik qurilishi va fonetik tuzilishi uning barcha egalari uchun umumiy bo'lsa-da, har bir shaxs fikrini o'ziga xos tarzda ifodalashi bilan ajralib turadi. Tilning umumiy asosi bilan alohida shaxslar nutqiga xos xususiy jihatlar orasida dialektik birlik mavjud bo'lib, badiiy ijod tarkibida mazkur munosabat personajlar tabiatidagi tipik va individual xususiyatlar zaminida namoyon bo'ladi.
M17	Ruhiyat va qayta yaratish san'ati Badiiy ijod ijodkorning ruhiy holati bilan chambarchas bog'liq. Ruhiy holat esa turg'un emas, o'zgarib turuvchi holat. Turg'unlik kayfiyati ijodkorning inqirozi hisoblanadi. Turg'unlik ilg'or dunyoqarash bilan omuxtalangan holda, qay darajada yuqori bo'lmasin, bu ijodkorning inqirozini ko'rsatadi. Yoki aksincha, ijodkor o'zining ruhiy holatini saqlab qolgani holda, atrof-muhitning o'zi turg'unlikka uchrasa, bu adibning emas, balki uning atrofidagi muhitni ifodalaydi.
M18	Tarjima va til me'yori Til me'yori nutq madaniyati masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til nazariyasi muammolari qatoridan joy oladi, kishilar oldiga asosan to'g'rini noto'g'ridan ajrata bilish, til an'anasi ko'tara oladigan holatlarni har xil tasodifiy, noan'anaviy qo'llanishlardan farqlay olish kabi vazifalarni qo'yadi. Tarjimada ham me'yor sifatida qabul etilgan qonuniyatlardan chetga chiqmaslik, ulardan unumli va o'rinli foydalanish talab etiladi. Bu qonuniyatlarning buzilishi til me'yorlarining soxtalashishiga, g'ayritabiiy birikmalarning yuzaga kelishiga, ohang tabiiyligining yo'qolishiga sabab bo'ladi.
III. Mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Tarjimashunoslikning paydo bo'lishi, fanning maqsad va vazifalari
A2	Ilmiy matnlar tuzulishi, tarkibi va tarjimasining o'ziga xosliklari
A3	Publisistik matnlar tuzilishi, tarkibi va tarjimasining o'ziga xosliklari
A4	Badiiy matnlar tuzilishi, tarkibi va tarjimasining o'ziga xos

	xususiyatlari
A5	Turkchadan o'zbekchaga matn tarjimasida frazeologik birliklarning berilishi
A6	Turkchadan o'zbekchaga va o'zbekchadan turkchaga tarjimada "soxta ekvivalentlar"ning berilishi
A7	Abdulla Qodiriy romanlarining turkcha tarjimalarida muallif uslubining qayta yaratilishi
A8	Odil Yoqubov asarlarining turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi
A9	R.N.Guntekin asarlari uslubini qayta yaratishda tarjimonning so'z tanlash mahorati
A10	Yashar Kamolning "Ararat afsonasi" romanidagi milliylikka xos so'zlarning tarjimada berilishi
A11	Badiiy matn tarjimasini. Turkcha hikoyalar tarjimasini tahlili
A12	Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasini, tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari
A13	Tarjimada ekvivalentlik masalasi tahlili
A14	Leksik birliklar va tarjima tahlili
A15	Tarjimada vorisiylik, uzviylik, davomiylik masalalari
A16	Tarjimada nutqiy xususiyatlar tahlili
A17	Tarjimada til me'yorlari tahlili

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Turkcha matn tarjimasini" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari Ish turi
1.	Publisistik matnlar tarjimasini va tahriri
2.	Falsafiy matnlar tarjimasini va tahriri masalasi
3.	Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasini va uning o'ziga xosliklari

4.	OAVga oid matnlar tarjimasining amaliy muammolari
5.	Sportga oid matnlar tarjimasining amaliy muammolari
6.	Kasblarga oid matnlar tarjimasini va tahriri
7.	Kompyuter va raqamli iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasini hamda tahriri
8.	Tilshunoslikka oid ilmiy matnlar tarjimasini
9.	Transport sohasiga oid matnlar tarjimasini
10.	Ilmiy matnlar tarjimasida terminlarning berilishi
11.	Ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va monografiyalar tarjimasini
12.	O'quv adabiyotlari tarjimasining o'ziga xosliklari
13.	Ilmiy uslubning boshqa funksional uslublardan farqi
14.	Ilmiy matnlardagi qisqartma, o'lchov, vazn birliklari tizimi va ularning tarjimada berilishi
15.	Muharrirlik huquqlari, tarjima matnini tahrir qilish, tahrirning o'ziga xos jihatlari
16.	Tarjimada mantiqiy xato turlari
17.	Personajlar nutqining tarjimada berilishi
18.	Sifatlash, o'xshatish va metaforalarning tarjimada berilishi
19.	Matnning texnik nuqsonlarini bartaraf qilish yo'llari
20.	Tahrirning mantiqiy asoslari. Mantiqiy xato turlari
21.	Tarjima matni leksikasi ustida ishlash
22.	Leksik birliklarni tarjimada berish bilan bog'liq muammolar
23.	Matnda ko'p ma'noli so'zlar, sinonim, omonim va antonimlarni qo'llashda yo'l qo'yiladigan xatolar
24.	Dialektizmlar, so'zlashuv tili, jargon va boshqa chegaralangan leksikadan stilistik maqsadda foydalanish
25.	Matnning estetik jihatini baholash mezonlari
26.	Tarjimashunoslik atamalarini izohli lug'atini tuzish
27.	Badiiy matnlar tarjimasini va tahriri
28.	O'zbek va turk tilshunoslik terminlari, tarjimasini, qiyosini
29.	O'zbek va turk adabiyotshunosligiga oid terminlar tarjimasini, qiyosini
30.	O'zbek va turk tarjimonlari, tarjima asarlari
<i>Izoh: Mustaqil ta'lim mavzulariga tegishli ilmiy maqolalar, monografiya va darsliklar o'rganiladi, tahlil qilinadi. Tegishli mavzular yuzasidan taqdimotlar tayyorlanadi.</i>	

“Turkcha matn tarjimasini” fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, tarjimada maqbul ifoda vositalarini topish hamda muayyan konkret tarjima masalalarini hal qilishda muqobil model', qoida, dalil va isbotlar tarjima nazariyasidan oladi. Asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi munosabat hamda konkret hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan mavzular tavsiya qilingan. Talabalar ushbu mavzularda olib borilgan keyingi tadqiqotlar bilan tanishish natijasida keng ma'lumotlar bazasiga ega bo'ladi va tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- **“Turkcha matn tarjimasini”** fanidan talabalar turkcha matnlar tarjimasida uslublarning ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, tarjimada matnlar tarkibining ahamiyati kabi masalalarni tushuntirib bera olish darajasida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;

- badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar tuzilishi va tarkibi; badiiy, ilmiy va publitsistik uslubning o'ziga xos jihatlari; matn ustida ishlashning nazariy va metodologik asoslari; matn tarjimasini va turlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; badiiy, ilmiy va publitsistik matnlarni tarjima qilish texnikasini; matnlarni janr turlariga ko'ra ajrata olish; tarjima matnlarini qiyoslash; turk tilidan ona tiliga, ona tilidan turk tiliga tarjima qilish; tarjima matnini tahrir qilish; tarjima matni leksikasi ustida ishlash; tarjima matnidagi sintaktik konstruksiyalari ustida ishlash; ma'nodagi xatolarni bartaraf etish haqidagi ko'nikmalarga **ega bo'lishi**;

- tarjimashunoslikning rivojlanish omillari, ahamiyati, turk-o'zbek tarjima matnlarini tarjima va tahrir qilish, turk tilidagi matnlar ustida ishlashning nazariy va metodologik ahamiyatini to'g'ri belgilash bo'yicha **malakaga ega bo'lishlari kerak**.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tarqatma materiallar;

	• ko'rgazmali qurollar; • video materiallar; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil. • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Ercilasun, A. B., Lehçeler Arası Aktarma, Türk Dili, Dergi, Sayı: 520, Nisan 1994; Türk Dünyası Üzerine İncelemeler.-Ankara:Akçağ Yayınları, 1999. 2. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDSHI, 2014. 2. Саломов F., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966. 3. Саломов F. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. 4. Саломов F., Таржима назарияси асослари; Тошкент, Ўқитувчи, 1983. 5. Саломов. F. Адабий анъана ва бадий таржима. – Т.: Фан, 1980. 6. Salomov G'aybulla, Tarjima nazariyasiga kirish. Darslik (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Namidov). –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –192 b. 7. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Дарслик.-Т.:Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2005.-352 б. Qo'shimcha adabiyotlar: 3. Ҳамидов X., “Ўзбек-турк таржимачилигининг долзарб муаммолари (1991-2017 йиллар)”. 1-қисм. Абдулла Қодирий асарлари турк тилида. –Тошкент: ТошДШИ, 2019. – 128 б. 4. Ҳамидов X.X., Ўзбек ва турк тиллари орасида бадий таржимада “сохта эквивалентлар” муаммоси, // Ёш таржимонлар альманахи. – Самарканд: СамДЧИ нашри, 2012. 5. Ҳамроев X. Миллий хос сўзлар – реалиялар ва бадий таржима // Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). – Тошкент, 1982. 6. Қосимова З. Русчадан ўзбекчага адекват таржима қилиш хусусида // Бадий таржиманинг актуал масалалари (Мақолалар тўплами). – Тошкент: “Фан”, 1977. 6. Karadoğan A., Türk Lehçeleri Arasında Aktarma Sorunları, Kırıkkale Üniversitesi, SBE, Türk Dili ve Edebiyatı Bilim Dalı, Dokt. tezi, Kırıkkale, 2004;

	7. Karadoğan A., Türk Lehçeleri Arasında Yapı Eş Değerliliği ve Yalancı Eş Değer Yapılar, 5. Uluslararası Türk Dil Kurultayı Bildirileri 1, 20-26 Eylül 2004. – Ankara: TDK Yayınları, 1996. 8. Yusuf Berdak, Turkcha – o'zbekcha “aldoqchi” so'zlar lug'ati. Türkçe-Özbekçe Sesteş Kelimeler Sözlüğü. –Т.: 2009 9. Adıgüzel, Hüseyin, Deyim Hazinesi, Açıklamalı - Örnekli Türkçe Deyimler Sözlüğü. –İstanbul, 1990. 10. Aksoy, O.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 1. Atasözleri Sözlüğü, İstanbul, İnkilap Yayınevi, 1994.; 11. Aksoy, O.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, Deyimler Sözlüğü, TDK Yayınları. –Ankara, 1984. Internet saytlaridagi turkcha badiiy asarlar: http://www.nesinvakfi.org/aziz_nesin_oduller.html https://tr.wikipedia.org/wiki/Zeynep_Oral http://www.kultur.gov.tr .
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: R.Ruzmanova – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “ O'zbek tilshunosligi” kafedrası dotsenti.
9.	Taqrizchilar: Z.Boynazarov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “ O'zbek tilshunosligi” kafedrası dotsenti. (tel.:+998995829381) Bayram BILIR – Samarqand davlat chet tillar instituti sharq tillari fakulteti Yaqin sharq tillari kafedrası dotsenti, PhD. (tel.:+998931961627)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Nosirov A.

O'zbek tilshunosligi
kafedrası mudiri

Filologiya fakulteti
dekani

SamDU o'quv ishlari
bo'yicha 1-proroktor

do'st. Mahmadiyev Sh.S.

prof. Eltazarov J.D.

prof. Soleyev A.S.



**Sharof Rashidov nomidagi samarqand davlat universiteti Filologiya va tillarni
o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan
"Turkcha matn tarjimai" fani fan dasturiga**

TAQRIZ



Ushbu fan dasturi Filologiya fakultetining filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Turkcha matn tarjimai" fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda mazkur yo'nalish xususiyatlari hisobga olingan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha zarur ko'rsatma va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar, fanni o'qitish natijalari (shakllantiriladigan kompetensiyalar), ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditni olish uchun talablar, baholash mezonlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida fanning maqsadi belgilangan, uning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak turkologlarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni qamrab olgan.

"Turkcha matn tarjimai" fani yuzasidan talabalarning zaruriy bilim va ko'nikmalar olishiga mo'ljallangan mavzular qamrovi, mazmuni jihatdan mazkur fan bo'yicha talab qilinadigan malaka talablarini to'la qamrab oladi. Mavzular mazmunan va xronologik jihatdan to'g'ri va asosli tanlangan bo'lib, talabalarining ushbu fan yuzasidan to'liq tasavvur va bilimlarni egallashiga mo'ljallangan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu fan mazmuni va tuzilishi jihatdan fan dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Turkcha matn tarjimai" fani fan dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**SamDCHTI Yaqin Sharq tillari
kafedrası dotsenti, PhD**


Bilir B.


**Sharof Rashidov nomidagi samarqand davlat universiteti Filologiya va tillarni
o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan
"Turkcha matn tarjimai" fani fan dasturiga**

TAQRIZ

Mazkur fan dasturi Filologiya fakultetining filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Turkcha matn tarjimai" fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda mazkur yo'nalish xususiyatlari hisobga olingan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha zarur ko'rsatma hamda tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar, fanni o'qitish natijalari (shakllantiriladigan kompetensiyalar), ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditni olish uchun talablar, baholash mezonlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Ushbu fan dasturida fanning maqsad va vazifalari, uning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak turkologlarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy hamda amaliy tushunchalarni qamrab olgan.

"Turkcha matn tarjimai" fani yuzasidan talabalarning zaruriy bilim va ko'nikmalar olishiga mo'ljallangan mavzular qamrovi, mazmuni jihatdan ushbu fan bo'yicha talab qilinadigan malaka talablarini to'la qamrab oladi. Mavzular mazmunan va xronologik jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lib, talabalarning ushbu fan yuzasidan to'liq bilim va ko'nikmalarni egallashiga mo'ljallangan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu fan mazmuni va tuzilishi jihatdan fan dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Turkcha matn tarjimai" fani fan dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**SamDU huzuridagi Turkologiya
ilmiy-tadqiqot instituti
dotsent, PhD.**



Z.Boynazarov